

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON,2024

## TABIAT QOTILI - ODAMZOT (MI) ?

*Choriyeva Shaxrinoz*

*Buxoro viloyati Jondor tumani 32-umumta'lim maktabi 11-sinf bitiruvchisi*

Tabiat bu bizni órab turgan barcha narsalar, ya'ni borliqdir. Biz har qadamimizda tabiat yaratib qóygan beminnat ne'matlardan foydalanamiz. Ba'zida bu ne'matlarning qadriga yetmay isrof qilib yuboramiz. Tabiatimizda barcha narsalar bir-biriga nisbatan chambarchas bogliqdir. Agar biz uning bir donagina ne'matiga ham zarar yetkazsak bu chambarchas uygunlikka ziyon yetkazgan bolamiz. Tabiat doimo insoniyat bilan boqlanib kelgan. Tabiat uzoq muddat yashasa inson ham shu muddatda yashaydi. Tabiat bolmasa insoniyat ham yóqolib ketadi. Tabiat bizning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarimizni qondiruvchi yagona manba hisoblanadi. Shu sababdan biz uni onaga qiyoslab " Ona tabiat " deya ataymiz. Tabiatning inson va jamiyat uchun ahamiyati juda katta turli-tumandir. Insonning tabiatga ta'siri boshqa faol bolmagan ( ósimlik va hayvonot ) ta'siriga nisbatan faol va xarakteri jihatidan tubdan farq qiladi.

Hozirgi kunda insoniyatning tabiatga nisbatan qilinayotgan foydali ishlari haqida gapiradigan bólsm, birdaniga inson, tabiat va jamiyat faol bólíb kelmoqdalar. Afsuski insoniyatning tabiatga foydasidan kóra zarari kóproq tegadi. Bu degani umuman tabiatga qaralmay qóyildi degani emas. Hozirgi kunda prezidentimiz tomonidan tabiat olamiga katta e'tibor berilmoqda. Suv qurigan joylarda har xil saksovul daraxtlarning ekilishi ( orol dengizi ), mahallaning har bir uy egalari yerlariga mevali kóchat ótqazishlari, hech bolmasa haftada bir kun har xil gaz va tutunlar chiqaruvchi avtomobilarning kóchaga chiqmasliklari, suv, elektr toki, tabiiy gaz va yana bir qancha foydali qazilmalardan unumli foydalanish haqidagi qarorlar shular jumlasidandir.

"Insoniyat shu paytgacha xohlaganicha tabiatga ozor berdi, uning ne'matlarini isrof qilib tóygunicha ishlatdi " desak adashmagan bolamiz. Insoniyat tabiatdan foydalangan holda qishloq, kócha, zavod, fabrika, binolar va ýollar, konlar va suv omborlari va har xil inshootlar yaratdi. Inson aql-idroki va mehnati tufayli yuzaga kelgan antropogen landshaftlar atrof tabiiy muhitiga óz ta'sirini kórsatmay qolmaydi. Yer yuzida aholi sonining keskin ósib borishi, fan va texnikaning shiddatli taraqqiyoti, mamlakatlar hududida tabiiy reurslarining bir tekis tarqalmaganligi mavjud tabiiy resurslardan imkon qadar kóproq foydalanish va shu yól bilan jamiyat taraqqiyotini tezlatishni taqozo qiladi. Natijada tabiat va inson órtasidagi ózaro munosabat qonunlari buziladi. Bu qonunlarning buzilishi esa ertami - kechmi ekologik inqirozga olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bólsm, insoniyat tabiatga foydasidan kóra zararini kóproq tekkizadi. Agar shu ketishda ketiladigan bólsa odamzot tabiat qotiliga aylanishi hech gap emas. Shunday ekan, bor narsani borida qadriga yetmoğimiz darkordir. Yóqotib bólgingandan sóng afsuslanishning hech ham keragi yóq. Alloh tayyor berib qóygan beminnat tabiatimizni qólimizdan kelgancha asrab-avaylashga va'da beramiz.